



XALQ DEPUTATLARI BULUNG'UR TUMAN KENGASHINING QARORI

2022 - yil 28 - mart

VI-59-66-7-93-K/22

Bulung'ur tuman hokimligi

Tuman aholi bandligiga ko'maklashish markazi direktori B.Bosimovning tumanda 2022-yilda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligi bo'yicha olib borilayotgan ishlari yuzasidan hisoboti

Tuman aholi bandligiga ko'maklashish markazi direktori B.Bosimovning tumanda 2022-yilda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligi bo'yicha olib borilayotgan ishlari yuzasidan hisoboti eshilib "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashining ellik to'qqizinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman aholi bandligiga ko'maklashish markazi direktori B.Bosimovning tumanda 2022-yilda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligi bo'yicha olib borilayotgan ishlari yuzasidan hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman aholi bandligiga ko'maklashish markazi (B.Bosimov) tuman sektor rahbarlari hamda mutasaddi korxon va tashkilotlar rahbarlari bilan hamkorlikda:

ishsiz fuqarolar, ayniqsa yoshlar, xotin-qizlar, qaytib kelgan mehnat migrantlarini mahalla darajasida kasb-hunarga, tadbirkorlikka o'qitish ko'lamini kengaytirish;

tumanda mehnat yarmarkalarini o'tkazilishi sifat va natijadorlik jihatidan yuqori darajada tashkillashtirish va mehnat yarmarkalarining o'zida ishga joylashtirish orqali ularda ishtirok etayotgan ishsizlarni ish bilan ta'minlanishiga erishish;

tumanda yangi ish o'rinlarini tashkil etish prognoz parametrlari asosida

amalga oshirilgan ishlar natijasida haqiqatda tashkil etilayotgan ish o‘rinlarini tuman Soliq inspeksiyasi bazasi bilan solishtirish orqali, haqiqatda yangi ish o‘rinlari yaratilganligi bo‘yicha monitoring ishlarini olib borish;

Bulung‘ur kasb-hunarga o‘qitish markazida aholi talabidan kelib chiqib qo‘shimcha kasblarga o‘qitish (erkaklar sartaroshligi) choralarini ko‘rsin va bu bo‘yicha 10 kun muddatda tuman Kengashi kotibiyatiga ma‘lumot kiritin.

3. Tuman aholi bandligiga ko‘maklashish markazi (B.Bosimov) yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta‘minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan har chorak yakuni bo‘yicha xalq deputatlari Bulung‘ur tuman Kengashiga ma‘lumot kiritib borsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (D.Xabibullayev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



S.Astonov